

4. John Deere rasmiy sayti <https://www.deere.co.uk/en-gb/your-start-into-the-future-of-farming>
5. SCANOVA rasmiy sayti <https://scanova.io/blog/seven-eleven-japan/>
6. Manet travel rasmiy sayti <https://manet.travel/>
7. In The Wiley Blackwell Companion to Tourism; Lew, A.A., Hall, C.M., Williams, A.M., Eds.; Wiley Blackwell: Hoboken, NJ, USA, 2014; pp. 578–588.
8. <https://www.mdpi.com/2071-1050/10/2/319#sec3-sustainability-10-00319>

O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI RIVOJLANISH TARAQQIYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Butanova Dilnoza Rustamovna

*PhD, Ma‘mun NTM “Buxgalteriya hisobi
va biznes boshqaruvi” kafedrası dotsenti*
butanovadilnoza@gmail.com

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach bozor iqtisodiyotini shakllantirish masalasi qo‘yildi va bozor tizimini tashkil qilish hamda ushbu yo‘ldagi iqtisodiy islohotlarni evolyutsion bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Mamlakat qishloq xo‘jaligini isloh qilishda dastlab xususiy mulkni shakllantirish masalasiga urg‘u berildi.

Qishloq xo‘jaligida mulkchilik shaklini o‘zgartirish, davlat mulkini xususiylashtirishdagi dastlabki asosiy qadamni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 7 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori ta‘minlab berdi. Mazkur qarorga ko‘ra mavjud jami 1019 ta xo‘jalikning 197 tasini 1993 yil 1 aprelgacha 503 tasini 1994 yil 1 yanvargacha mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish belgilab olingan edi. Bu esa o‘z navbatida davlat mulki bo‘lgan sovxoz va jamoa xo‘jaliklar o‘rnida shirkat xo‘jaliklari, agrofimlar va fermer xo‘jaliklarni paydo bo‘lishini ta‘minlab, aholini jamoa va xususiy mulk to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirish, ularni erga egalik hissini hamda sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Natijada, qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda asosiy sub‘ekt sifatida shirkat, dehqon va fermer xo‘jaliklari paydo bo‘ldi. 1995 yilga kelib jami qishloq xo‘jalik ekin maydonining 87,1 foizi, yalpi mahsulotining 48,1 foizi shirkatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shu bilan bir qatorda asosiy subyekt sifatida shakllantirilishi maqsad qilingan fermer xo‘jaliklari sonini ham asta-sekinlik bilan oshirilib borildi. Mazkur davrda fermer xo‘jaliklari ekin ekiladigan umumiy maydonning 3,8 foizini egallagani holda qishloq xo‘jalik yalpi mahsulotining 2,6 foizi, tarmoqdagi ish bilan bandlarning 5,4 foizi ular hissasiga to‘g‘ri kelgan (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida shirkat, dehqon va fermer xo‘jaliklarining umumiy ko‘rsatkichlari (1995 yil)

№	Ko‘rsatkichlar	Shirkatlar	Dehqon xo‘jaliklari	fermer xo‘jaliklari
1	Ekin ekiladigan umumiy maydondagi ulushi	87,1	9,1	3,8
2	Qishloq xo‘jalik umumiy yalpi mahsulotidagi ulushi %	48,1	49,3	2,6
3	Ishlovchilarning agrar tarmoqdagi ish bilan bandlardagi ulushi	58,6	36	5,4
4	Yerdan foydalanish bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichi	1,8	0,2	1,5
5	Ishchi kuchidan foydalanish bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichi	1,2	0,7	2,1

Mazkur davr ma’lumotlari asosida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlarning yerdan foydalanish samaradorligi natijalariga ko‘ra shirkat xo‘jaliklari jami etishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining bir foizini etishtirish uchun 1,8 foiz yerdan foydalangan bo‘lsa, dehqon va fermer xo‘jaliklari mos ravishda 0,2 va 1,5 foiz yerdan foydalanishganini ko‘rish mumkin. 1998 yilda sohada mahsulot ishlab chiqarishning asosiy subyektlaridan biri sifatida shakllantirish maqsad qilingan fermerlik harakatini rivojlantirish huquqiy asoslarini yanada mustahkamlandi.[A.A.Aysachyev, 2012]

Femer xo‘jaliklarini rivojlanishini tadqiq qilingan ilmiy tadqiqot ishlarida fermerlikni ukld sifatida tan olinishi, huquqiy asoslarini yaratilishi, sohani asosiy tovar ishlab chiqaruvchi sifatida shakllanib, qishloq xo‘jaligida islohotlarni amalga oshirishdagi mavqeini oshib borishi nuqtai nazarida 1998-2002 yillarda soha rivojlanishida alohida bosqich sifatida qaraladi.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 dekabrda “2000 yilda qishloq xo‘jaligi korxonalarini sanatsiya qilish yakunlari va 2001 yilda uni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida 1999 yildan buyon sanatsiyada bo‘lgan 86 ta jamoa xo‘jaligi shirkat xo‘jaliklariga aylantirildi, shuningdek 1999 yildan buyon sanatsiyada bo‘lgan 59 ta jamoa xo‘jaligining sanatsiya muddati yana bir yilga cho‘zildi, 52 ta shirkat xo‘jaligi asosida 3031 ta fermer xo‘jaligi tashkil qilindi.

Natijada yerga egalik qilish, mahsulot ishlab chiqarish va bandlikni ta’minlashda shirkat xo‘jaliklari ulushi kamayishi evaziga dehqon va fermer xo‘jaliklari ulushi ortishi kuzatildi. Xususan, 2002 yilga kelib shirkatlarning ekin maydondagi ulushini 1995 yildagiga nisbatan 26,5 foizga kamayib 60,6 foizga tushishi dehqon xo‘jaliklari ulushi 9,1 foizda 11,4 foizga, fermer xo‘jaliklari ulushi esa 3,8 foizdan 28 foizga oshishini ta’minlagan. Natijada, shirkat xo‘jaliklarining yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi ulushini 22,2 foizga

pasayishi, dehqon va fermer xo‘jaliklari ulushini mos ravishda 14,8 va 7,4 foizga oshirishini ta’minlagan.

Agrar sohada mahsulot yetishtiruvchilarni tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirishdagi so‘nggi bosqich 2003 yildan boshlanadi. Ushbu davrga kelib shirkat xo‘jaliklarini to‘liq fermer xo‘jaliklariga o‘tkazish, asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchilari sifatida fermer hamda dehqon xo‘jaliklarini maydonga chiqarishga e’tibor qaratildi [2].

2008 yilga kelib qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotning 99,8 foizi xususiy mulk hissasiga to‘g‘ri keldi. Bunda asosiy ulush fermer (32,6) va dehqon (61,1) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2-jadval

O‘zbekistonda 1991 yildan boshlab fermer xo‘jaligini qayta qurish bosqichlarining asosiy xususiyatlari

	Asosiy transformatsiya jarayonlari	Asosiy xo‘jalik shakli	Muhim siyosat maqsadlari
Birinchi bosqich 1992-1997 yillar	Soxvozlarni kolxozlarga o‘zgartirilishi	Koxoz va sovxozlar	Bug‘doy maydonlari va hosildorlikni kengaytirish, sovxozlarni qayta tashkil qilish
Ikkinchi bosqich 1998-2002 yillar qisman parchalanish	Kolxozlarni shirkat xo‘jaliklari aylantiish. Fermer xo‘jaliklariga ijaraga er ajratish	Shirkat va fermer xo‘jaliklari	Yangi tashkil qilingan yakka tartibdagi fermer xo‘jaliklarining ixtisoslashuvi
Uchinchi bosqich 2003-2008 yillar to‘liq parchalanish	Shirkat xo‘jaliklarining fermer xo‘jaliklariga aylantirishni tugatish	Shirkat va fermer xo‘jaliklari	Paxta va bug‘doydan tashqari tarmoqlar va chorvachilik xo‘jaliklarini rivojlantirish
To‘rtinchi bosqich 2008/09-2015 yillar ekin maydonlarini optimallashtirish	Fermer xo‘jaliklarini qayta tashkil qilish (ekin maydonlarini optimallashtirish)	Fermer xo‘jaliklari (paxta va bug‘doy yetishtirishga ixtisoslashish)	Paxta hosildorligining ortishi va barqarorligi, paxta maydonlarini boshqa joyga ko‘chirish
Beshinchi bosqich 2016-2021 yillar mahsulot yetishtirishga ixtisoslashish	Ishlab chiqarishda ixtisoslashish va optimallashtirish	Fermer xo‘jaliklari (turli ekinlarga ixtisoslashish)	Paxta va g‘alla maydonlarini ko‘chirish, qimmatli ekin maydonlarini, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini ko‘paytirish
Oltinchi bosqich 2022 yildan keyingi davr	Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish jarayonlarini klasterlashtirish	Fermer xo‘jaliklarini klaster tarkibiy qismiga aylanishi	Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash uchun klasterlarni shakllantirish

Bu davrga kelib fermer xo‘jaliklari asosiy mahsulot yetishtiruvchi sifatida shakllanib ulgurdi va keyingi muhim vazifa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ularning o‘rni va rolini oshirish, bunda dastlab sohada mahsulot yetishtirishda asosiy omil bo‘lgan yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga e‘tibor qaratildi va fermerlik harakatini rivojlantirishning keyingi bosqichini boshlab berdi.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini huquqiy asoslarini shakllantirish chora-tadbirlarini dastlabki ko‘rinishlari 2008 yilga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 oktyabrdagi “Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4041-sonli Farmoniga asosan, 2009 yil hosilidan e‘tiboran 75,8 ming gektar, 2012 yil hosilidan esa yana 30,1 ming gektar paxta maydonlari qisqartirilib, o‘rniga to‘lig‘icha meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2015 yil 29 dekabrdagi “2016 – 2020 yillar davrida qishloq xo‘jaligini qayta shakllantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2460-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda 2016 – 2020 yillar mobaynida 170,5 ming gektar paxta va 50 ming gektar g‘alla maydonlari o‘rniga oziq-ovqat ekinlari ekilishi belgilab berilgan.

Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va xususiy sektor rolini oshirish, muhim sub‘ekt sifatida tan olingan fermer xo‘jaliklari faoliyatini tashkil etish, ular uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish amalga oshirilgan islohotlarni shartli ravishda oltita bosqichga ajratgan holda o‘rganish maqsadga muvofiq deb topdik (2 -jadval).

Amalga oshirilgan tahlil natijalariga asoslangan holda xulosa qilinadigan bo‘lsa, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida xususiy sektorni rivojlantirishning huquqiy asoslarini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo‘lib, buning natijasida fermer va dehqon xo‘jaliklari asosiy mahsulot yetishtiruvchilar sifatida shakllandi. Bugungi kunda ularning samarali faoliyat olib borishi bo‘yicha huquqiy asoslarni shakllantirish va takomillashtirish bo‘yicha ishlar davom qildirilib fermer xo‘jaliklar faoliyatini kengaytirish hamda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini kengaytirish, klasterlarni tashkil qilish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Foydalanilgan manbalar

1. R.X. Tashmatov. O‘zbekistonda fermerlik institutining rivojlanish bosqichlari va faoliyat samaradorligi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №4, may, 2012.
2. Djanibekov N. 2008. *A micro-economic analysis of farm restructuring in the Khorezm region. Uzbekistan. PhD thesis, Bonn University, Center for Development Research (ZEF).*
3. Butanova D. *Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati.* – 2024.
4. Butanova D. R. *ISSUES OF ASSESSING THE ROLE OF AGRICULTURE IN PROVIDING ECONOMIC GROWTH IN KHOREZM REGION //АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОБЩЕСТВА, НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ.* – 2023. – С. 40-43.
5. Butanova D. R. *STATISTICAL ANALYSIS OF AGRICULTURE DEVELOPMENT IN KHOREZM REGION //Фундаментальная и прикладная наука.* – 2023. – С. 38-41.